

OMON MATJON IJODIDA JANRIY RANG-BARANGLIK**Jo'rayeva Mexrigiyo Quvondiq qizi**

BuxDU Adabiyotshunoslik yo'nalishi II bosqich magistiri

(O'zbekiston)

Tel: 998997123493

jorayevamehrigiyo96@gmail.com

Annotation

The article explores the genres encountered in the work of Omon Matjon. In particular, examples of the ghazal genre found in the poet's work have been analyzed.

Key words

Omon Matchon, literary type, legend, gazal, mukhammas, poem, dramatic poem, chronic poem, folk-lore.

Omon Matjon o'zbek adabiyotiga o'tgan asrning 60-yillari oxiri va 70-yillari boshida kirib keldi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi singari ijodkorlar bilan bir davrda ijod qildi. U ham proza, ham poeziyada birday qalam tebrata oladigan, o'zbek adabiyotida o'z o'rni va so'ziga ega bo'lgan ijodkor edi. Uning ijodida janrlar rang-barang va u adabiy turlarning barchasida ijod qildi. Omon Matjon ijodining manbalari va omillari xilma-xil. Otaxon adabiyotshunosimiz Ozod Sharafiddinov televideniyeiga bergan intervyusida Omon Matjon she'riyati haqida fikr bildirar ekan, uning ijodi ikki daryodan suv ichishini va u daryolarning biri xalq og'zaki ijodi daryosi bo'lsa, ikkinchisi o'zbek klassik (mumtoz) adabiyoti daryosi ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bu so'zlarni aytganda olim haq edi. Omon Matjon ijodida xalq og'zaki ijodi na'munalariga murojaat ko'p uchraydi. Uning asarlarida Xorazm folkloriga mansub maqol, matal, rivoyat-u afsonalarga murojaat ko'p uchraydi. Xususan, shoir ijodida afsonalar alohida o'ringa ega. Bilamizki, afsonalar xalq og'zaki ijodining epik turiga mansub janr hisoblanadi. Omon Matjon esa o'zining "Xaqqush qichqirig'i" nomli 40 afsonadan iborat poemasida afsona janrini yana bir bor yuksaltirdi. Uning o'zi afsona haqida shunday deydi: "Afsonalari mo'l yurt – eng boy yurt, eng umrboqiy yurt. Afsonalar – eng uzoq umr ko'radigan, ya'ni eng ko'p ma'naviy xizmat qiladigan faxriy vatandoshlarimiz!"¹ [Omon Matjon] Shoir to'plamda ba'zi bir afsonalarni o'zi yaratgan bo'lsa, ba'zi birlarini xalq orasida mashhur bo'lgan qadimiy afsonalardan foydalanib, o'z fikr-mulohazalarini singdirgan holda bayon etadi. Shu jihatdan bu to'plamdagi afsonalarni mohiyatan 2 guruhga bo'lish mumkin:

Voqelikni tasvirlashda xalq afsonalari syujetidan foydalanish;

Voqelikni afsona usulida tasvirlash ma'nosida yozilgan afsonalar.

Xususan, to'plamdagi "Xeвоq afsonasi" afsonasi Nuh payg'ambar, To'fon voqeasi va shu orqali Xiva shahri nomining kelib chiqishi haqidagi afsona va afsonaviy, olovda tug'ilib olovda halok bo'luvchi qush samandar haqidagi "Samandar"afsonasida shoirning haqiqat uchun kurash olib boruvchi insonlar taqdiri xuddi shu qush singari olov ichida kechishini bayon etadi. Bular birinchi guruh afsonalar qatoriga kirs, "Muallaq to'rg'ay", "Ishq va Rashk", "Tun afsonasi" kabilar ikkinchi guruh afsonalarga kiradi. Shoir "Haqqush qichqirig'i" poemasida afsona janrining xususiyatlarini namoyon qiladi va bu orqali xalq hayoti, uning ma'naviy dunyosi, orzu-umidlari va iztiroblarini o'z qarashlari bilan hamohanglikda bayon etadi. Uning "Yor tanlash" afsonasida esa Xorazm xalqida qadimda nishonlangan "Qizil gul" bayrami va unda yigitlarning o'zlariga munosib yor tanlashi an'anasi yoritib beriladi. Bunda shoir umr yo'ldosh tanlashda nimalarga e'tibor qaratish kerak ekanligi, go'zal ma'naviyatli ayol bilan yuksaklikka erishish mumkinligi bayon etiladi. Omon Matjon bu poemasi orqali afsonalarning xalq hayotida muhim o'rin egallashini yana bir bor isbotlab berdi. Omon Matjon ijodining yana bir muhim oziq oladigan manbasi – bu o'zbek mumtoz (klassik) adabiyotidir. Shoir klassik adabiyotning lirik turga mansub bo'lgan g'azal, muxammas singari janrlarida samarali ijod qildi. Bu shoir ijod qilgan davrda, Abdulla Oripov va Erkin Vohidovlar ijodidan tashqari, aruz vaznida ijod qilish

¹ Matjon Omon. "Haqqush qichqirig'i". T., 1979. 13-bet.

deyarli to'xtab qolganini hisobga olsak juda katta voqea edi. Shoirning "Dilimning rangini"² "Onalar"³, "Kubro e'tirofi"⁴ singari ga'zallari vazn, qofiya, shakl va mazmun jihatdan janrning barcha talablariga javob beradi. G'azallarida ijtimoiy, ishqiy mavzularni yuksak iste'dod bilan kuyladi. Xususan, "Dilimning rangini" deb boshlanuvchi g'azalida shoir qalbidagi inja hislarni aks ettiradi:

Dilimning rangini gul bilsa bo'ldi,
 Mening kimligimni el bilsa bo'ldi.
 O'lis yulduzlara sirrim aytmiram,
 Nolishimni tongi yel bilsa bo'ldi.
 Ucharga har qushdan par topinmadim,
 Parvozlarning hadisin dil bilsa bo'ldi.
 Jaholat mehrobi toshin o'pmadim,
 O'shal bag'ritoshim til bilsa bo'ldi.
 Damlar shikvasiga uchma, omon bo'l,
 Fazlu kamolingni el bilsa bo'ldi.

G'azal aruzning hazaj (hazaji musaddasi mahzuf yoki maqsur) bahrida yozilgan bo'lib, "el-yel-dil-til-el" so'zlari qofiyadosh so'zlar bo'lib, qofiyasi muqayyad qofiya turiga mansub. Radif vazifasini esa "bilsa bo'ldi" birikmasi qo'llanilgan. Ushbu g'azalni hasbi hol tarzida yozilgan g'azal desak to'g'ri bo'ladi. Sababi shoirning ijod yo'lida unga nisbatan qanchadan-qancha tuhmat toshlari otiladi. Yozgan asarlari necha yillab gazeta va nashriyot yuzini ko'rmadi. Lekin shunda ham shoir birovlardan ta'na qilmadi, ijod etishda davom etdi. G'azal matlasida ta'kidlaganidek, uning kimligini, qanday inson ekanligini bir guruh muxolifot insonlar emas, balki asarlarini sevib o'qiydigan ona xalqining bilishigina yetarli edi, xalos. Keyingi baytda esa qalb nolalarini, sirlarini o'lis yulduzlarga emas, balki tongi yelga aytishini, yel yuragidagi nolalarini uzoqlarga olib ketishini xohlaydi. Aslida, bu sirlar-u nolalar tunlari yulduzday charaqlab qalbini tirnashini emas, balki yel bo'lib uzoqlarga ketishini xohlaydi. Uchinchi baytda esa shoir ijodi bilan yuksaklikka parvoz qilishi uchun har qushdan par topinmasligini, parvozlarning hadisin dili bilsa yetarli ekanligini ta'kidlaydi. Bu baytda o'zligini anglagan inson o'zining qancha pog'onagacha kuchi yetishini bilishi, o'zini o'zi alday olmasligiga ishora mavjud. Bu yerda Omon Matjonning qanchalar mag'rur va haqgo'y inson ekanligini bilib olamiz. Chunki u inson va ijodkor sifatida soxta shuhrat uchun "ucharga har qushdan par topinmasligi"ni ta'kidlaydi. Begona bayt, ya'ni maqtadan oldingi baytda shoirning fikrlari yana bir bor yuqori pog'onaga ko'tarilganligining guvohi bo'lamiz. Ya'ni shoir bu baytda she'riyatga oshno bo'lib, jaholat mehrobiga yaqin yo'lamaganligini aytadi. Ushbu baytda lirik qahramondan tashqari ikkinchi obraz – "bag'ritoshim" obrazi kiritiladi:

Jaholat mehrobi toshin o'pmadim,
 O'shal bag'ritoshim til bilsa bo'ldi.

Misrada toshbag'ir insonlarga nisbatan aynan "bag'ritoshim" deb murojaat qiladi. Bu esa shoirning so'z tanlash mahorati va insoniylik tuyg'ulari bilan bog'liq. O'ziga ozor yetgan insonga nisbatan ham mehr bilan "bag'ritoshim" deya olish yuksak insoniy fazilat egasigagina xos. Maqtada esa iyhom san'atidan foydalaniladi, ya'ni shoir "omon bo'l" birikmasi orqali ham omon bo'lish tilagini tilaydi, ham taxallus sifatida o'z ismiga ishora qilganini ko'rishimiz mumkin. Maqtaning oxirgi misrasida "Fazlu kamolingni el bilsa boldi", - deb aytni o'tadi. Matlada boshlangan shoirning kim ekanligini faqat elga ayon bo'lsa bo'ldi degan fikr yana kamolga yetganini ham el bilsa kifoyaligi kabi fikr bilan tugatiladi.

Shoirning g'azal janridan tashqari muxammas(beshlik) janrida ham ijod namunalari mavjud. Xususan, shoir o'ziga ma'naviy ustoz deb bilgan mir Alisher Navoiyning "O'xshamas" radifli ga'zaliga taxmis bog'lagan, ya'ni Navoiyning vazn qofiya va radif tizimini saqlagan holda o'z fikr-mulohazalarini qo'shib muxammas yaratadi. Qofiyalanishi a-a-a-a-a, b-b-b-a-a, v-v-v-a-a tarzida bo'lib, shoir Navoiy g'azalining har bir baytini muxammasning har bir bandining oxirgi ikki misrasida keltiradi. Xuddi shunday "Ogahiy ga'zaliga muxammasi muloqot"⁵ deb nomlanuvchi muxammasi Ogahiyning "Ustina" radifli g'azaliga taxmis

² Matjon Omon. "Ming bir yog'du". T., 1989. 11-bet

³ Matjon Omon. "Ardaxiva". T., 2000. 48-bet

⁴ Matjon Omon. "Ardaxiva". T., 2000. 41-bet

⁵ Matjon Omon. "Yonayotgan daraxt". T., 1977. 151-bet

bog'langan. Bunda ham vazn, qofiya tizimiga amal qilinadi. Har bir bandeda shoirning savol-mulohazalariga Ogahiy g'azalining har bir bayti ketma-ket javob tariqasida keltiriladi.

Shoir ijodida doston janri alohida ahamiyatga ega. Uning "Nega men", "Qush yo'li" singari dostonlari; "Cho'ldagilar" doston-xronikasi va "Ming bir yog'du" marifiy dostoni; "Beruniy" dramatik dostonlari mavjud bo'lib, shoir doston janrining imkoniyatlarini to'la ochib bera oldi. Aynan shoirning ijodida sinkritizm hodisasi shu janrda yaqqol ko'zga tashlanadi. "Beruniy" dramatik dostonida ham dramatik tur ham epik turga mansub bo'lgan xususiyatlar: voqelik va harakat uyg'unlashgan holda ustuvorlik kasb etgan. "Cho'ldagilar" doston xronikasida esa voqealar rivoji Mirzacho'lni o'zlashtirishga jalb qilingan cho'lquvarlarning o'y-kechinmalari o'ziga xos yilnoma sifatida bayon etiladi. Uning ma'rifiy dostoni esa Alisher Navoiy "Xamsa"si ta'sirida yozilgan bo'lib, unda shoirning Navoiy "Xamsa"si va uning shaxsiyatida ko'rilgan barcha nodir xislatlar bayon etilib, kitobxonlarning ma'naviyatini o'stirishga xizmat qiladi.

Omon Matjon ijodi janrlarga boy, u qaysi janrda ijod qilmasin shu janrning imkoniyatlarini to'la-to'kis ochib bera oladi. Adabiy turlarning barchasiga xos janrlarida ijod qildi va avlodlarga o'zidan juda boy ma'naviy meros qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Matjon Omon. "Haqqush qichqirig'i". T., 1979. 13-bet.
2. Matjon Omon. "Ming bir yog'du". T., 1989. 11-bet
3. Matjon Omon. "Ardaxiva". T., 2000. 48-bet
4. Matjon Omon. "Ardaxiva". T., 2000. 41-bet
5. Matjon Omon. "Yonayotgan daraxt". T., 1977. 151-bet